

MATEMATIKA

O'qituvchilar diqqatiga

4-sinfda matematikadan bosqichli nazorat yozma ravishda o'tkaziladi. Nazorat materiallari variantlar ko'rinishida oldindan ko'paytirilib, konvertlarga solinadi va maktab direktoriga 1-maygacha topshiriladi.

Bosqichli nazoratda o'quvchilar bir necha varaq toza qog'oz, chizg'ich va ruchka (qalam) olib keladilar. O'qituvchi o'quvchilarni qator bo'yicha variantlarga bo'lib chiqadi. So'ngra har bir qatordan bir o'quvchi chiqib, stolga teskari qilib qo'yilgan varaqlardagi variantlardan birini oladi. Shu qatordagi barcha o'quvchilarga ko'paytirilgan variantlar tarqatiladi. Variantlar tarqatilgandan so'ng o'qituvchi zaruriy tushunchalar beradi va vaqtni belgilab, doskaga yozib qo'yadi.

Yozma ishni o'tkazish uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu davrda o'quvchilar masalani yechish, hisoblash ishlari, tenglamalarni yechish va boshqa topshiriqlarni yozma tarzda bajaradilar. O'quvchilar-ning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari (BKM) har bir variantda keltirilgan. Har bir BKM elementi 5 ballik tizimda baholanadi. So'ng 4 ta topshiriq bo'yicha to'plangan ballar jamlanib, 4 ga bo'linadi va yaxlitlanadi. Yaxlitlangan o'rtacha ball imtihonning haqiqiy bali hisoblanadi va sinf jurnaliga qo'yiladi.

1-variant

1. Masalani yeching:

To'qimachilik fabrikasi oldin 84 sr, keyin 108 sr paxta oldi. Hammasi bo'lib massasi bir xil bo'lgan 96 toy paxta keltirildi. Fabrika oldin necha toy va keyin necha toy paxta olgan?

2. Hisoblang:

$$(5142 + 3786) : 62 \cdot 306 + (13323 - 3425) : 49$$

3. Tenglamani yeching:

$$30336 : x + 537 = 921$$

4. Yer maydonining yuzasi 234 m^2 . Maydonning uzunligi 26 m. Yer maydonining kengligi nimaga teng?

O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasi quyida-gicha baholanadi:

Masalani yechish ko'nikmasi — 5 ball.

Amallarni bajarish ketma-ketligini to'g'ri topganligi va uni amalda bajarganligi — 5 ball.

Tenglamani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblay olishi — 5 ball.

2-variant

1. Masalani yeching:

Do'konga televizor, magnitofon va radiopriyomniklar keltirildi. Ularning hammasi birgalikda 296 ta. Shulardan 78 tasi magnitofon, radiopriyomniklar esa magnitofonlardan 2 marta ko'p, qolganlari televizorlar. Do 'konga nechta televizor olib kelingan?

2. Hisoblang:

$$(5012 - 28 \cdot 65) : 12 + (360 - 60) : 3$$

3. Tenglamani yeching:

$$x \cdot 2 - 743 = 9447$$

4. Tomonlari 15 sm va 33 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping. Javobini santimetrda ifodalang.

O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasi quyida-gicha baholanadi:

Masalani yechish ko'nikmasi — 5 ball.

Amallarni bajarish ketma-ketligini to'g'ri topganligi va uni amalda bajarganligi — 5 ball.

Tenglamani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

To'g'ri to'rtburchakning perimetrini hisoblay olishi — 5 ball.

3-variant

1. Masalani yeching:

Ikki aholi punktidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita traktor yo'lga chiqdi. Birinchi traktorning tezligi 30 km/soat, ikkinchi traktorning tezligi 10 km/soat. Birinchi traktor 120 km yo'lni o'tgan vaqtda ikkinchi traktor necha kilometr yurgan bo'ladi?

2. Hisoblang:

$a = 489004$ va $b = 356749$ bo'lganda $a - b$ ifodaning qiymatini toping.

3. Tenglamani yeching:

$$150 + 400 : x = 350$$

4. Yer maydonining yuzasi 416 m^2 . Maydonning kengligi 16m. Yer maydonining uzunligi nimaga teng?

O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasi quyida-gicha baholanadi:

Masalani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

Amalni bajarishni to'g'ri topganligi va uni amalda bajarganligi — 5 ball.

Tenglamani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblay olishi — 5 ball.

4-variant

1. Masalani yeching:

Do'konga 328 qop un keltirildi. Har bir qopda 50 kg un bor. Birinchi kuni 350 kg, ikkinchi kuni esa 325 kg un sotildi. Do'konda necha qop un qoldi?

2. Hisoblang:

$$1508 \cdot 98 + 53119 - (4085 - 34354 : 89)$$

3. Tenglamani yeching:

$$x : 14 - 6045 = 5533$$

4. Ixtiyoriy to'rtburchak chizing. Unda ikkita kesmani shunday chizingki, natijada 3 ta uchburchak hosil bo'lsin.

O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasi quyida-gicha baholanadi:

Masalani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

Amallarni bajarish ketma-ketligini to'g'ri topganligi va uni amalda bajarganligi — 5 ball.

Tenglamani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

Uchta uchburchak hosil qila olishi — 5 ball.

5-variant

1. Masalani yeching:

O'quvchilar maktab bog'iga 300 tup olma va 200 tup olxo'ri ko'chati o'tqazishdi. Har bir qatorga baravar ko'chat o'tqazildi. Shunda olma ko'chatlari olxo'ri ko'chatlariga qaraganda 5 qator ortiq bo'ldi. O'quvchilar necha qator olma va necha qator olxo'ri ko'chatlari o'tqazishgan?

2. Quyidagi misolni ustun shaklida yozib hisoblang:

$$1242 \text{ sr} : 2 =$$

$$13 \text{ dm} \cdot 6 = \quad 8 \text{ sr } 15 \text{ kg} - 5 \text{ sr } 17 \text{ kg} =$$

3. Tenglamani yeching:

$$92317 - x \cdot 36 = 60061$$

4. Uzunligi 7 sm, eni undan 2 sm qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. So'ng xuddi shunday perimetrli kvadrat chizing.

O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakasi quyida-gicha baholanadi:

Masalani yechish ko'nikmasi — 5 ball.

Amallarni bajarish ketma-ketligini to'g'ri topganligi va uni amalda bajarganligi — 5 ball.

Tenglamani yecha olish ko'nikmasi — 5 ball.

To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblay olishi — 5 ball.